



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyun holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **20,7 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **0.2 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **18,4 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar-iyun oyida Respublikada 29,4 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,4 mingtaga ko'pdir.


Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,5 % ga kamaygan hamda ularning soni 8,6 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 20,7 mingta (7,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 306,2 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida (21,2 %), Toshkent (9,6%), Farg'ona (8,9 %) va Andijon (8,6 %) viloyatlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyul holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
<b>O'z. Respublikasi</b>	<b>321,3</b>	<b>100,0</b>	<b>306,2</b>	<b>100,0</b>
Q. Respublikasi	15,3	4,8	14,7	4,8
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	27,8	8,7	26,3	8,6
Buxoro	17,8	5,5	17,0	5,6
Jizzax	14,1	4,4	13,4	4,4
Qashqadaryo	20,5	6,4	19,9	6,5
Navoiy	10,6	3,3	10,3	3,4
Namangan	21,7	6,8	20,8	6,8
Samarqand	24,2	7,5	22,8	7,4
Surxondaryo	15,9	4,9	15,0	4,9
Sirdaryo	10,7	3,3	10,0	3,3
Toshkent	32,2	10,3	29,5	9,6
Farg'ona	27,9	8,7	27,4	8,9
Xorazm	14,9	4,6	14,2	4,6
Toshkent sh.	66,7	20,8	64,9	21,2


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,3 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,7 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,2 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,0 % savdoda, 17,2 % sanoatda, 8,8 % qurilishda, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,1 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda**




2018 yil yanvar-iyun holatiga 29385 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 17,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Toshkent shahrida (6391 ta), Toshkent (2879 ta), Farg'ona (2376 ta) va Samarqand viloyatlarida (2403 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (798 ta), Xorazm (1110 ta) hamda Navoiy (1155 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (6026 ta), sanoatda (5753 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (3230 ta) va qurilishda (3348 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (663 ta), axborot va aloqada (669 ta) hamda tashish va saqlashda (1015 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyun holatiga.	2018 yil yanvar-iyun holatiga.
<b>Jami:</b>	<b>25009</b>	<b>29385</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3568	3230
Sanoat	6478	5753
Qurilish	2274	3348
Savdo	4909	6026
Tashish va saqlash	1056	1015
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2105	1967
Axborot va aloqa	603	669
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	459	663
Boshqa turlari	3557	6714

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 iyul holatiga 249,7 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 71,6 mingta, oilaviy korxonalar – 13,6 mingta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 157,1 mingta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 0,6 mingtani va boshqalar 6,8 mingtani tashkil etadi.







## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 6294 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1061 taga yoki 20,3 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 3447 tasi qo'shma korxonalar, 2847 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Toshkent shahar 4044 ta (64,3 %), Toshkent viloyati 695 ta (11,0 %) va Samarqand viloyatlari 335 ta (5,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xorazm viloyati 52 ta (0,9 %), Qashqadaryo viloyati 62 ta (1,0 %), Navoiy viloyati 71 ta (1,1 %) va Surxondaryo viloyati 97 ta (1,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyul holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 2634 ta (41,8 %), savdoda 1309 ta (20,8 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1077 ta (17,1 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 89 ta (1,4 %), axborot va aloqada 157 ta (2,5 %), tashish va saqlashda 184 ta (2,9 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 226 ta (3,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 256 ta (4,1 %) va qurilishda 362 ta (5,8 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-iyun oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 963 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 617 taga ko'paygan yoki 2,8 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 193 ta, Turkiya Respublikasi – 150 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-138 ta, Qozog'iston Respublikasi – 107 ta, va Koreya Respublikasi – 84 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-may holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 303 ta, savdoda 265 ta, qurilishda 93 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 79 ta va boshqa faoliyat turlarida 223 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyul holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 247,7 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyul holatiga qaraganda 8,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 55,8 mingtasi (22,5 %) Toshkent shahriga, 24,0 mingtasi (9,7 %) Toshkent, 21,7 mingtasi (8,8 %) Farq'ona hamda 21,7 mingtasi (8,8 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 247,7 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 66,9 mingtasi (27,0 %) – savdoda, 52,2 mingtasi (21,1 %) - sanoatda, 26,7 mingtasi (10,8 %) - qurilishda, 22,4 mingtasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 18,4 mingtasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 12,4 mingtasi (5,0 %) - tashish va saqlashda, 6,4 mingtasi (2,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 4,9 mingtasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 37,4 mingtasi (15,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyun holatiga 25,9 mingdan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 8,6 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahrida (6068 ta), Toshkent (2674 ta), Samarqand (2181 ta) va Farg'ona viloyatlarida (2005 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (730 ta), Xorazm (933 ta) hamda Navoiy (991 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (6021 ta), sanoatda (5746 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (3222 ta) va qurilishda (3344 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (654 ta), axborot va aloqada (666 ta) hamda tashish va saqlashda (1011 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyul holatiga 14196 tani tashkil etib, ulardan 13604 tasi yoki 95,8 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **25,9** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda





Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 37,0 % yoki 5038 tasi sanoat, 21,5 % yoki 2921 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,6 % yoki 2254 tasi savdo, 11,4 % yoki 1546 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,3 % yoki 174 tasi qurilish, 1,1 % yoki 153 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 150 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 135 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,1 % yoki 1233 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Davlat statistika qo'mitasi**  
**Statistik registrlarni yuritish va tizimli**  
**xizmat ko'rsatish boshqarmasi**

**Nashr uchun mas'ul: N.Sheraliev**

**(0371) 230-80-91,90**

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat**  
**registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida**  
**tayyorlangan**

